



**MUSTAQILLIKDAN KEYINGI YILLARDA TURIZMNI
RIVOJLANTIRISH UCHUN QABUL QILINGAN QONUN, FARMON VA
ULARNING AHAMIYATI**

Xasanov Xojimurod To'ychiboy o'g'li

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

3-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan so'ng hukumat tomonidan turizmni rivojlantirish va uni har-tomondan qo'llab-quvvatlash uchun Prezident tomonidan qabul qilingan qonunlar farmonlar va hukumat tomonidan amalga oshirilgan ishlar bayon qilinadi.

Kalit so'zlar: Buyuk Ipak yo'li, Turizm to'g'risida, elektron viza, Akademik vizasi.

Abstract: In this article, after the independence of the Republic of Uzbekistan, the laws and decrees adopted by the President to develop tourism and support it in every way, and the actions taken by the government are described.

Key words: Great Silk Road, Tourism, e-visa, Academic visa.

Абстрактный: В данной статье после обретения независимости Республики Узбекистан описаны законы и указы, принятые Президентом по развитию туризма и всемерной его поддержке, а также действия, предпринимаемые правительством.

Ключевые слово: Великий Шелковый Путь, Туризм, электронная виза, Академическая виза.

O'zbekistonda mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq xizmatlar ko'rsatish sohasidagi turizm xizmatlari zamonaviy xizmat turlari sifatida talqin qilinib, unga e'tibor davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. Soha rivoji uchun zaruriy tashkiliy-huquqiy mexanizmlar vujudga keltirilib, hukumat tomonidan tegishli me'yoriy hujjatlar qabul qilindi. Bu yo'nalishdagi ishlar hozir ham davom etayotgani



fikrimizning isbotidir. O'zbekistonda turizm sohasi faoliyatini ilmiy asosda yanada takomillashtirish masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. «Turizmni iqtisodiyotning strategik tarmog'iga aylantirish biz uchun ustuvor vazifa bo'lib qoladi». Respublikada ro'yxatga olingan milliy tarixiy-madaniy obidalar soni bo'yicha dunyodagi yetakchi o'n mamlakatdan biri sifatida e'tirof etilishi, Buyuk Ipak yo'li bo'ylab turizmni rivojlantirish dasturining amalga oshirilishi, «Ipak yo'li» turizm xalqaro universitetining tashkil etilishi, ko'plab xorijiy mamlakatlar fuqarolari uchun O'zbekistonga kirish vizasining bekor qilinishi turizmni rivojlantirish davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri ekanligidan dalolatdir.

1999-yil 20-avgustda O'zbekiston Respublikasining «Turizm to'g'risida»gi Qonuni qabul qilingan edi. U 22-moddadan iborat bo'lgan. Yangi tahrirdagi «Turizm to'g'risida»gi Qonun 2019-yil 16-aprelda Qonunchilik palatasi tomonidan qabul qilingan, 2019-yil 21-iyunda Senat tomonidan ma'qullangan va 2019-yil 18-iyulda tasdiqlandi. Ushbu qonun 10 ta bob, 45-moddadan iborat. O'zbekiston Respublikasining turizm to'g'risidagi qonun hujjatlari ushbu Qonundan va boshqa qonun hujjatlaridan iborat. Qoraqalpog'iston Respublikasida turizm sohasidagi munosabatlar Qoraqalpog'iston Respublikasining qonun hujjatlari bilan ham tartibga solinadi. Agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O'zbekiston Respublikasining turizm to'g'risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo'llaniladi.

Qonunning asosiy printsiplari:

- turistlarning, ekskursantlarning va turizm sohasi subyektlarining huquqlari, erkinliklari, qonuniy manfaatlarini hamda xavfsizligini himoya qilish ustuvorligi;
- turizmni barqaror rivojlantirish va buning uchun qulay shartsharoitlar yaratish shu va boshqa prinsiplardan tashkil topgan. Qonun va farmonlarning asosiy maqsad va g'oyasi shu prinsiplar kabi ishlabchiqilgan.

O'zbekistonda ham 2019-yil davomida turizmni rivojlantirish bo'yicha jadal ishlar davom ettirildi. Shu jumladan, viza rasmiylashtirish jarayonlarini soddalashtirish, ortiqcha to'siqlarni bartaraf etish va sohaning investitsiya jozibadorligini oshirish bo'yicha qator choralar ko'rildi. Natijada, 2019-yil yakunlariga



ko'ra turizm xizmatlari eksporti 2018-yilga nisbatan 26.1 foizga o'sib, 1.3 milliard dollarni tashkil qildi va sohaning xizmatlar eksportidagi ulushi 39.3 foizga yetdi. 47 ta davlat fuqarolari uchun viza rejimi bekor qilindi va vizasiz rejimga ega mamlakatlar soni 86 taga yetdi. Bundan tashqari, viza jarayonlarini soddalashtirish maqsadida elektron viza olish imkoniyatiga ega mamlakatlar soni 57 ni tashkil etdi. Qo'shimcha ravishda, «Vatandosh», «Talaba», «Akademik», «Ziyoratchi» va «Tibbiyot» viza turlari joriy etildi. Qilingan ishlar natijasi tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, o'tgan davr bilan solishtirganda 2019yilda mamlakatimizga kelgan sayyohlar soni 26.2 foizga ko'paydi. Vizasiz rejim joriy etilgan davlatlardan tashrif buyurgan sayyohlar sonida esa 58 foiz o'sish kuzatildi. Natijada, sayyohlarni joylashtirish maskanlarining yuklanish darajasi 62 foizdan 84 foizga ko'paydi. Bundan shunisi aniqki mamlakat turizm sohasida huquq mustxkamlanib o'z o'rniga ega bo'lmoqda.

Qabul qilingan qonunlar:

- Turizm to'g'risida" gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni;
- "Mahsulot va xizmatlarni sertifikatlashtirish to'g'risida" gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni;
- "Faoliyatning ayrim turlarini litsenziyalash to'g'risida" gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni;
- "Madaniy boyliklarning olib chiqilishi va olib kirilishi to'g'risida" gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni;
- "Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risida" gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni;
- "Jismoniy shaxslar va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida" gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni.

Prezidentning farmonlari va qarorlari:

- "Buyuk Ipak yo'lini tiklash va respublikada xalqaro turizmni rivojlantirishda O'zbekiston Respublikasining ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi qarori, 02.06.1995 y., PF-1162-son;
- «Xalqaro shartnomani tasdiqlash to'g'risida» 2012 yil 13 dekabrda PQ-1879-sonli qaror;



- "Davlat mulki ob'ektlarini kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlariga sotish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 03.07.2014 yildagi PQ-2200-son buyrug'i;
- "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ba'zi farmonlariga o'zgartishlar kiritish to'g'risida" 2014 yil 9 dekabrda PF-4677-son;
- "O'zbekiston Respublikasi sayyohlik industriasini jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida" 02.12.2016 y. № PF-4861;
- "O'zbekiston Respublikasi Davlat qo'mitasining turizmni rivojlantirish bo'yicha faoliyatini tashkil etish to'g'risida" gi 02.12.2016 yil, PQ-2666 sonli;
- "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida" 21.02.2017 yildagi № PF-4965-son;
- "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim farmonlariga o'zgartishlar va qo'shimchalar kiritish to'g'risida" 04.05.2017 y. № PF-5033;
- "Buxoro va Buxoro viloyatida 2017-2019 yillar uchun sayyohlik salohiyatini rivojlantirishni jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 19.05.2017 y., PQ-2980;
- 2017 yil 16 avgustdagi "2018-2019 yillarda sayyohlikni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida" gi PQ-3217-sonli buyrug'i;
- "O'zbekiston Respublikasining Konsullik Bo'limi tarifiga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida" 04.12.2017 yildagi PQ-3423-son;
- "Chorvoq" erkin turistik zonasini barpo etish to'g'risida 2017 yil 5 dekabrda PF-5273-son;
- "O'zbekiston Respublikasining sayyohlik salohiyatini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish bo'yicha qo'shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida" 03.02.2018 y. № PF-5326;
- "O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TURIZM SALOHIYATINI RIVOJLANTIRISH UCHUN QULAY SHAROITLAR YARATISH BO'YICHA QO'SHIMCHA TASHKILIY CHORA-TADBIRLAR TO'G'RISIDA" 06.02.2018 y., № PQ-3509;



- "O'zbekiston Respublikasi Davlat mulki qo'mitasining turizmni rivojlantirish bo'yicha faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"
06.02.2018 y., PQ-3510.

- "Ichki turizmni jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi
07.02.2018 yildagi PQ-3514-sonli buyrug'i

Yuqorida sanab o'tilgan qonun va farmonlardan tashqari yana ko'plab hukumat qaror va farmonlari ham mavjud. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki mamlakat mustaqillikka erishganidan so'ng sohaga oid o'nlab qonunlar va farmonlar ishlab chiqildi. Bular o'z navbatida mamlakat turizmdagi huquqiy ehtiyojlarga yordam berib kelmoqda. Ammo shuni ham aytish mumkinki mamlakatda yangi sohalardan biri bo'lgan turizmda boshqarish shakli bir necha marta o'zgartrilib, sinovlardan o'tkazildi.

REFERENCES:

1. O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 18.07.2019 yildagi O'RQ-549-son 'TURIZM TO'G'RISIDA'.
2. TURIZMNING HUQUQIY ASOSLARI_N.M.Umurzakova, D.R.Rustamova, A.M.Muzaffarov/«Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi» Toshkent – 2021.
3. <https://uzbekistan.travel/uz/turizm-qonunlari/>